

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK ASOSLARI

Nabiyev Fazliddin

Aniq fanlar fakulteti Fizika va astronomiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

E-mail.fazliddinnabiyev19@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy hunarmandchilikning asosiy turlari, qo'l mehnati hamda xususiy tadbirkorlik haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Marketing, sotuv, muloqot, milliy hunarmandchilik, qo'l mehnati, sifat, narx, menejment, vaqt, samaradorlik.

Abstract: This article talks about the main types of national crafts, manual labor and private entrepreneurship.

Key words: Marketing, sales, communication, national craftsmanship, manual labor, quality, price, management, time, efficiency.

❖ Biznes - jamiyatdagi tizimli va iqtisodiy muommolarni hal qilish orqali foyda topish imkoniyati. Deylik muommo bor(tizimli va iqtisodiy) - ushbu muommoni qandaydir foyda evaziga(albatta qonun doirasida) hal qila oladigan kimdir bor. Aynan o'sha kimdirni biz bemalol tadbirkor deya olamiz

❖ Biznes - bu doimiy ravishda o'z ustida ishlash, rivojlanish(xoh ma'naviy xoh jismoniy tarzda).

❖ Biznes - bu o'ylash, tafakkur qilish. Shu orqali yon-atrofdagi imkoniyatlarni ko'ra olish, tavakkal qila olish qobiliyati xarajatssiz harakat 0 ga teng deganlaridek.

❖ Biznes - bu doimiy harakat, oldinga hamisha olg'a yurish, yura olishdir.

❖ Biznes - jamiyat, davlat so'roviga javob berish muommo bor - uni hal qilish kerak. Talab bor - uni qondirish kerak tadbirkor ayni shu damda labbay deya olishi kerak.

❖ Biznes - bu doimiy ravishda tajribalar qilish, uning natijasida yo foyda bo'lishi mumkin yoki, uning natijasida zarar bo'lishi mumkin.

❖ Biznes - bu biron bir yangilik qilish jarayoniga o'zini baxshiyda qilish, har bir tug'ilajak va tug'ilgan g'oyalarni qadrlash va ulardan foydalana olish. Minimal imkoniyatdan maksimal darajada foyda chiqara olish demakdir

❖ Biznes - imkoniyatlardan foylanishdan qo'rqmaslik va buni evaziga mukofot olish yoxud tajriba olish(agarda vaziyat qarama qarshi tarafga o'zgarsa).

❖ Biznes - bu insonning yashash tarzi, uning kelajagi bo'lajak imkoniyatlari yokida uning tamomila nihoyasi.

- ❖ Бизнес - bu insondagi ba'zi sifatlar to'plami: aql, kreativlik, maqsadga intiluvchanlik, qa'tiyatlilik, sabrlilik, .
- ❖ Бизнес - bu FOYDA = DAROMADLAR - XARAJATLAR. Shu birgina formula orqali biznes va biznes yuritishni tushuntirish mumkin. Qolganlari esa, ikkinchi darajalati narsalar yoki biznesning detallaridir.

Kichik va o'rta biznes- mustaqil ravishda o'z mulkiga ega bo'la olish, xo'jalik faoliyatini mustaqil ravishda tashkil eta olish va o'sha tarmoqda hukmron mavqe tutmaydigan jarayondir. Turli mamlakatlarda kichik biznes subyekt maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida aynon infratuzlmada band bo'lgan ishchilar soni, infratuzilmaning mahsulot aylanmasi hajmi, uning kapitali foyda miqdori va yana turli xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu borada anchagina ega mamlakatlar qatorida turuvchi AQSH da ishlov beruvchi sanoatda 100 kishidan toki 500 tagacha bo'lsa ham kichik biznes deya yuritiladi.

Hozirgi kunda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan tadbirkorlik yo'nalishidagi ayol-qizlarga keng yo'l ochib bermoqda. Biz yoshlar bundan judayam xursandmiz. Tadbirkorlik har bir sohada jadallashadi. Har bir yo'nalishda raqobat bo'lganidek tadbirkorlikda ham sifat, narx, marketing yuqori darajada turadi. Tadbirkorlik yo'nalishidagi har bir insonga ma'lum miqdorda mablag' kerak bo'ladi. Lekin mablag' ortiqcha sarflanmaydigan yo'nalishlar ham bor. Bulardan biri miliy xunarmandchiligimizning asosiy turlaridan biri bo'lgan savat to'qish qo'l mehnatidir. Qo'l mehnati faoliyatining muhim natijasi insonlarning o'rganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlashga da'vat etib ularda yanada chuqur bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi. Bolalarni qo'l mehnatiga axloqiy va ryhiy tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar bolalarni bilim bilan qurollantirish, mehnat ta'limi jarayonida bilim olib amaliy ko'rsatish tarkib topadi. Qo'l mehnati texnologiya mashg'ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida bolalarni mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevar intizomli, har bir ishda ham o'z burchi va mas'uliyatini sezadigan, jamoaviy ishlarni qo'llab-quvvatlaydigan qilib tarbiyalash hisoblanadi. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ro'li va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida qarorlar ishlab chiqilgan. Tadbirkor bozor iqtisodiyoti bo'g'inlarining alohida takror ishlab chiqarish borasida xizmat ko'rsatuvchi tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xo'jalik munosabatlarining majmuidir deb ta'riflaydi.

(1) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini ro'yhatdan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib qoidalari soddalashtirildi.

Har bir ish dastlab kichik loyiha, ishtirok, dars hamda o'rganish mashg'ulotlaridan boshlanganidek tadbirkorlik ham kichik biznesdan boshlanadi. Davlatimizda har bir kasb egalariga e'tibor qaratiladi. 2011-yil nomi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili deb e'lon qilingan hamda shundan buyon yutrimizda biznes egalari, tadbirkorlar, ishbilarmonlar soni ko'paymoqda.